

OCHIQ AMALIY MASHG'ULOT

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Istiqlol yillarida mazkur soha tubdan isloh qilinib, uning samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning muhim omili sifatida ekin maydonlarining meliorativ holatini yaxshilash, suv resurslaridan oqilona foydalanish borasida izchil chora-tadbirlar ko'rilayapti. Sababi, respublikamizda sug'oriladigan yerlarning yarmidan ko'prog'i turli darajada sho'rlangan bo'lib, bu hol tuproq unumdorligi, ekinlar hosildorligiga doimo xavf solib turadi. Biroq yurtimizda yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, sizot suvlari sathini pasaytirish masalasiga ustuvor ahamiyat berilib, tizimli chora-tadbirlar olib borilayotgani tufayli muammolar o'z yechimini topmoqda.

Bugun institutimizning "Irrigatsiya va melioratsiya" kafedrasida assistenti Axmedjanova Gulnora Teshabayevna 3 - bosqich 303-guruh talabalariga "Sug'oriladigan yerlarda zax qochirish ishlari. Umumiy va xususiy suv muvozanat tenglamalari" mavzusida Ochiq amaliy mashg'ulot darsini o'tdi. Ochiq darsda Hidrometeorologiya ilmiy-tekshirish instituti kichik ilmiy xodimi Gafurov A.A., Irrigatsiya va melioratsiya kafedrasida professor-o'qituvchilari ishtirok etishdi. Mashg'ulot avvalida o'qituvchi talabalarga: Sug'oriladigan yerlarda zax qochirish ishlari. Umumiy va xususiy suv muvozanat tenglamalari haqida tushunchalar berish bilan boshladi. Shuningdek, zovurga tushadigan yuklamni nima uchun aniqlash kerakligi tartibi tushuntirildi va talabalarni har biriga alohida topshiriqlar berildi. Dars so'ngida mashg'ulotda faol ishtirok etganlikka qarab o'qituvchi har bir talabani baholab bordi. Amaliy mashg'ulot darsi talabalar va o'qituvchi o'rtasida o'zaro fikr-almashinib, savol-javob tarzida qiziqarli o'tkazildi.



"Irrigatsiya va melioratsiya" kafedrasida assistenti Axmedjanova G. Axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov